

O'QUVCHILARNI MUSTAQILLIK TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA HUQUQIY TARBIYA BERISH MEXANIZMI

Bobobekov Dilmurod Jo'ramurodovich

Sirdaryo viloyati yuridik texnikumi mutaxassislik fani o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14554002>

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'quvchilarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirish bugungi kunda qanchalik dolzarb masalalardan biri bo'lib qolayotganligi, huquqiy tarbiya kelajak yosh avlod hayotida katta ahamiyatga ega ekanligi va bu borada mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar shuningdek, o'quvchilarni mustaqillik tafakkurini rivojlantirishda huquqiy ta'lim-tarbiyaning ahamiyati haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Huquqiy ong, huquqiy madaniyat, konsepsiya, huquqiy davlat, huquqiy ta'lim va tarbiya, yoshlar.

МЕХАНИЗМ ПРАВОВОГО ОБРАЗОВАНИЯ В РАЗВИТИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО МЫШЛЕНИЯ СТУДЕНТОВ

Аннотация. В данной статье формирование правосознания и правовой культуры у студентов является одним из наиболее актуальных вопросов сегодня, юридическое образование имеет большое значение в жизни будущего молодого поколения, а реформы, проводимые в этом направлении в Наша страна также помогает студентам развивать независимое мышление. Объясняется важность образования.

Ключевые слова: Правосознание, правовая культура, концепция, правовое государство, юридическое воспитание и воспитание, молодежь.

THE MECHANISM OF LEGAL EDUCATION IN DEVELOPING STUDENTS' INDEPENDENT THINKING

Abstract. In this article, the formation of legal consciousness and legal culture among students is one of the most urgent issues today, legal education is of great importance in the life of the future young generation, and the reforms carried out in this regard in our country also help students to develop independent thinking. the importance of education is explained.

Key words: Legal awareness, legal culture, concept, legal state, legal education and training, youth.

Hozirgi kunda, chinakkam huquqiy demokratik davlat qurish hamda fuqarolik jamiyatini shakllantirishda, eng ustuvor vazifa sifatida jamiyatimizda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirib borish, qonun ustuvorligini ta'minlash eng muhim siyosiy masala bo'lib qolmoqda.

Darhaqiqat, bu borada davlatimiz rahbarining 2019-yil 9-yanvardagi "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi, PF-

5618-son Farmoni asosida tasdiqlangan “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish” Konsepsiyasi mazkur siyosiy faoliyat rivoji uchun amalga oshirilgan samarali islohot bo‘ldi.

Aholining barcha qatlamlari huquqiy savodxonlikka erishishi, mustahkam irodali, o‘z huquqlarini biladigan va qonunlarni hurmat qiladigan, huquqiy bilimlarini kundalik hayotda qo‘llay oladigan, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lgan va huquqbuzarlikka nisbatan muvofiqlik munosabatda bo‘ladigan fuqarolarni tarbiyalashning keng qamrovli muntazam tizimini yaratish Konsepsiyaning asosiy maqsadidir¹.

Huquqiy madaniyat xalqimizning azaliy an‘analariga, udumlariga, tiliga, diniga, ruhiyatiga asoslangan holda insof va iymon, adolat va qonuniylik, insonga yuksak hurmat va e‘tibor, sabr-toqat kabi ma‘rifat va haqiqat tuyg‘ularini ongimizga singdirishga xizmat qiladi. Shuning uchun ham kishilarning fikrini, dunyoqarashini mustaqilligimiz yo‘lida fidokorona mehnat qilishga yo‘naltirilgan huquqiy madaniyatni yuksaltirish hayotiy zaruriyatdir. Aholining huquqiy savodxonligini va huquqiy ongini yuksaltirish, huquqiy ta‘lim va ma‘rifatni, jamiyatda huquqiy bilimlar tartibotini tubdan yaxshilash, inson huquq va erkinlariga chuqur hurmat va ehtiromga asoslangan munosabatni, odamlarda qonunga itoatkorlik tuyg‘usini, qonunlarni bilish va unga qat’iy amal qilish saodatmandligini qaror toptirish bugungi kunning zaruriy talabi bo‘lib kelmoqda.

Huquqiy demokratik davlat va adolatli fuqarolik jamiyati qurish jarayonida, avvalo, har bir fuqaroning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini shakllantirib borish asosiy va muhim vazifa hisoblanadi. Huquqiy davlat qurishning zaruriy sharti - bu qonunlarning so‘zsiz bajarilishidir.

Qonunlarning bir xilda va so‘zsiz bajarilishi har bir shaxsning o‘z vazifasiga munosabati va zimmasidagi mas‘uliyatni his qilishiga bog‘liqdir.

So‘nggi yillarda milliy huquq tizimini tubdan isloh qilish, jamiyatda huquqiy madaniyatni shakllantirish hamda malakali yuridik kadrlarni tayyorlash borasida sezilarli ishlar amalga oshirildi. Shu bilan birga, inson huquq va erkinliklariga hurmat munosabatini shakllantirishga, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda fuqarolarning huquqiy savodxonligi darajasini oshirishga to‘sqinlik qiluvchi bir qator muammo va kamchiliklar saqlanib qolinmoqda. Xususan, huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, eng avvalo, huquqiy ta‘lim va tarbiya borasidagi ishlar tizimli va uzviy olib borilmayapti. Uzoq yillar davomida bu masala huquqni muhofaza qiluvchi organlar va ayrim davlat organlarining ishi sifatida qarab kelinib, bunda oila, mahalla va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining ishtiroki yetarlicha ta‘minlanmagan.

Yoshlarning huquqiy tarbiyasiga salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi omillarga nisbatan huquqiy

¹ Qarang. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi, PF-5618-son Farmoni. Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.07.2023-y., 06/23/107/0441-son.

immunitetni shakllantirish, har bir shaxsda qonunlarga va odob-axloq qoidalariga hurmat, milliy qadriyatlarga sadoqat, huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik hissini uyg'otish ishiga kompleks tarzda yondashilmadi. Aholining huquqiy bilimlarini oshirishga doir vazifalarning umumiy tusda belgilanganligi hamda ularni amalga oshirishning aniq ta'sirchan mexanizmi mavjud emasligi jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish borasidagi ishlarning samarasiz olib borilayotganligini ko'rsatadi. Huquqiy ong va huquqiy savodxonlikni yuksaltirishda shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlarini o'rtasidagi muvozanatni saqlash g'oyalarini aholi ongiga singdirish ishlarining yetarli olib borilmasligi ham qonun ustuvorligini ta'minlashga o'zining jiddiy salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Aholining huquqiy bilimlari yetarli emasligi, shuningdek, davlat organlarining qonunga xilof qarorlari ustidan sudga shikoyat qilish imkoniyatidan deyarli foydalanmasligi mansabdor shaxslar tomonidan fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini kamsitilishi holatlarining vujudga kelishiga sabab bo'lmoqda. O'zbekiston huquqiy davlat barpo etish sari qadam qo'yilib, bu yo'lda huquqiy ta'lim-tarbiya, huquqiy ongni takomillashtirish masalalariga katta etibor berib kelinmoqda. Bu mas'uliyatli vazifada mehnat jamoalarida, bilim maskanlarida va har bir shaxs bilan olib borish borasida ko'p qirrali ishlar qilinmoqda. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni fikrimizning dalili bo'ladi. Jamiyat oldida turgan dolzarb muammolarni hal qilish uchun xalqning huquqiy madaniyatini oshirish lozim, bu esa huquqiy savodxonlikni, huquqiy ta'lim-tarbiyani oshirishni talab qiladi².

Sharq mutafakkiri, qomusiy olim Abu Nasr al-Forobiy huquqni fozil kishilarning haqiqiy baxtga erishish vositasi deb tushungan. Huquq, uning fikricha, mamlakatda tinchlikni ta'minlash, xavfsizlikni ta'min etish, taraqqiyotga shart- sharoit yaratish, ijodiy mehnatga imkon yaratish vositasidir. Huquq - ehtirolarni jilovlash vositasidir. Huquq - insonni asrash, avaylash qurolidir.

Forobiy asarlarini diqqat bilan o'rgansak, uning qarashlari o'z davridan ancha ilgari ketganligini ko'ramiz. Shuni aytish kerakki, alloma qadimgi mutafakkirlarning huquqiy sohadagi asarlariga sharhlar yozish bilan ularni shunchaki takrorlamadi, balki boyitdi. Arastu va Aftolun huquqiy qarashlariga bag'ishlangan kitoblari uning huquqiy sohada juda chuqur bilimga egaligi va fiqh fanlarini har tomonlama tadbiq etganligidan dalolat beradi. Shu sababli allomaning huquqiy ta'limoti xalqimizning bebaho huquqiy merosini tiklash, uni avlodlarga yetkazishda katta ahamiyatga ega.

Mutafakkirning fikricha, qonun adolatli bo'lishi kerak va uning nomidan u (qonun) haqida gapirilsa ham mo'tabar ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi. Qonunni mensimaydigan va shu bilan birga qo'l ostidagilarni ham shunga undaydiganlar o'z xatti-harakatlari ila katta tartibsizliklar

² Qarang. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 12.10.2021-y., 03/21/721/0952-son.

keltirib chiqaradi³, deydi Forobiy. Ulug' alloma qonunni joriy etuvchi odamlar orasida do'stlik tuyg'ulari mavjudligini kuzatgan holda, qonunning kamchilik va nuqsonlardan holi bo'lishini ta'minlash uchun olimlar joriy etilgan qonunlarni chuqur ishonch, bilim bilan tushuntirib berishi, sharhlashi zarurligini aytadi. Chunki agarda davlat o'z qonunchiligida haqiqiy muhabbat, yuksak aqlga asoslanmasa, uning qismati haloqat va parokandalik bo'ladi. Bu qoida davlatga ham, alohida odamga ham barobar taalluqli ekanligini alloma alohida qayd qiladi. Huquqiy ta'lim-tarbiyali bo'lish uchun har bir shaxs umumhuquq bilimga, uni ongli ravishda qabul qilishga va huquqiy madaniyatni alohida bajarishga yetarli darajada huquqiy saboq olish kerak. Lekin hozirgi paytgacha huquqiy ta'lim-tarbiya tushunchasi, uning tushuntirish metodlari olimlarimiz tomonidan to'raligicha yoritilmagan.

Huquqiy ta'limning keng va tor ma'noda ko'rish mumkin. Keng ma'noda butun jamoaning, ko'pchilikning ongiga ta'sir ko'rsatishga qaratilgan ta'lim, tor ma'noda esa alohida shaxsga, uning ongiga ta'sir etish yo'llari tushuniladi. Huquqiy ta'lim natijasida keng omma yoki shaxs o'z xatti – harakatlarining qonuniy ekanligini tushunsa, huquq tartibotni buzmaslikka harakat qilsa o'zini ongli ravishda, huquq normalariga rioya etgan holda boshqara olsa, maqsadga erishilgan bo'lib hisoblanadi.

Demak, huquqiy ta'lim bu - tashkiliy ravishda muntazam olib boriladigan, aniq maqsadni ko'zlagan va shaxsga "guruh shaxslariga" ta'sir qila oladigan, ularda huquqiy ong, huquqiy bilim, qonunlarga rioya qilish xislatlarini vujudga keltiradigan harakatdir. Ma'lumki, qonunga rioya qilish uchun, eng avvalo uni bilish kerak. Huquqiy ta'lim-tarbiya orqali har bir shaxsning ongiga nima qilmoq mumkin, nima qilmoq mumkin emasligini, jamiyat, davlat undan nimani talab qiladi, qonunlarga rioya etish yo'llari nimadan iborat ekanligini yetkazmoq lozim. Tartib buzuvchilar orasida o'z xatti-harakatining noqonuniyligini anglamaslik, noqonuniy ekan deb ham o'ylamaslik va bunday harakatni jazoga loyiq emas deb tushunish ko'p uchraydi. Shunday tushuncha hosil bo'lmasligi uchun huquqiy ta'lim-tarbiya jarayonida har bir jamoada o'rnatilgan tartibni buzish, qonun normalariga rioya etmaslik natijasida intizomiy, ma'muriy, moddiy yoki jinoiy jazo kelib chiqishini tushuntirish, uqtirish zarur. Huquqiy ta'lim-tarbiyani kuchaytirishga oltmishinchi yillardan boshlab alohida ahamiyat berilla boshlandi. Shu davrga aytish kerakki, hozirda ham huquqiy ta'lim - tarbiya bilan chambarchas bog'liq holda olib olib borilayapti. Shaxs va jamiyat o'rtasida vujudga keladigan munosabatlarning rivojlanish prinsiplariga mos bo'lishi shaxs faoliyatini yo'naltirib turuvchi hayotiy pozitsiyaga bog'liq. Hayotiy pozitsiya esa ta'lim- tarbiya jarayonida shakllanadi. Shu sababdan ibtidoiy jamoa tuzumi davridayoq shaxs tarbiyasini jamiyat o'z nazoratiga olgan va bu vazifani bajarishga eng dono kishilarga topshirgan. Shaxsni yashashga

³ Abu Nasr Farobiyning "Fozil odamlar shahri". Toshkent, Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti 1993.

o'rgatish jamiyat faoliyatining muhim sohalaridan biri bo'lib kelgan. Ta'lim-tarbiyaning ijtimoiy vazifasi shaxsni biror – bir foydali ishga, faoliyatga o'rgatish demakdir. Masalan, yoshlarni biror hunarga, muomalaga, sanatga, yurish turishga va boshqalarga o'rgatish.

Huquqiy ta'lim-tarbiya tizimi uch tarkibiy qismdan tashkil topadi:

- davlat belgilangan qonun qoidalarini o'qitish;
- ularni jamiyat a'zolari o'rtasida tashviqot qilish;
- o'quvchi yoshlarni qonun qoidalar ijrosida bevosita ishtirok etishga o'rgatish.

Huquqiy ta'lim-tarbiyani jamoa o'rtasida yoki individual shaklda amalga oshirish mumkin.

Yoshlarni huquqiy bilimga va huquqiy tarbiyaga jalb etishda huquqni himoya qiluvchi davlat organlari xodimlari bilan uchrashuv o'tkazilishi, savol-javob kechalari tashkil etilishi yoki huquqshunos uyushmalari tuzilishi ijobiy natija beradi. Individual yakka tarzda huquqiy bilim berishda, huquqiy tarbiyalashda shaxsga maxsus adabiyotlarda tavsiya etilishi, unda qiziqish uyg'otish, tarbiyalanuvchining ruhiy holatini o'rganib, u qabul qila oladigan, tushuna biladigan tarzda suhbat olib borish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, huquqiy madaniyatga ega bo'lish uni o'rganish har bir fuqarolarining majburiyati sanaladi. Shu bilan bir qatorda buni farzandlarimizda o'rgatish har birimizning muqaddas burchimizdir. Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirib borish qonun ustuvorligini ta'minlash va qonuniylikni mustahkamlanishida o'z hissamizni qo'shishimiz darkor. Jamiyatda aholining huquqiy savodxonligini oshirib borishni aniq ko'rsatkichlar asosida o'rganishimiz lozim. Aholining huquqiy xabardorligini oshirish maqsadida "Huquqiy axborot" radio loyihalarini kuzatib borishimiz yurtimizdagi huquqiy jarayonlardan xabardor bo'lishimiz bizning fuqarolik burchimizdir.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasining 2023 yil 30 apreldagi Konstitutsiyasi. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son;
2. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 12.10.2021-y., 03/21/721/0952-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi, PF-5618-son Farmoni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 04.07.2023-y., 06/23/107/0441-son.
4. Abu Nasr Farobiyning "Fozil odamlar shahri". Toshkent, Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti 1993.

Internet saytlari

5. www.lex.uz
6. www.norma.uz
7. www.huquqiportal.uz